

Jahon banki ishtirokida “O‘zbekistonda COVID-19 koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish bo‘yicha shoshilinch chora-tadbirlar” loyihasi

Loyiha Jahon bankining COVID-19ga qarshi choralar ko‘rish Global tashabbusi doirasida tayyorlangan, O‘zbekistonning Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi (XTA) va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) tomonidan qo‘shimcha moliyalashtirilishi hisobidan, COVID-19 ga tez javob berish Mexanizmi (FTCF) yo‘nalishida moliyalashtiriladi.

Dunyo bo‘ylab odamlar COVID-19 pandemiyasi bilan kurashayotgan bir paytda, Jahon banki guruhi, mamlakatlarga pandemiyaga qarshi kurashishda yordam berishni qo‘llashini quyidagi to‘rtta ustuvor yo‘nalishga e‘tibor qaratib tezda moslashtirdi.

- pandemiya tahdidi ostida qolgan odamlarning hayotini saqlab qolish;
- aholining kam ta‘minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini himoya qilish;
- iqtisod tiklanishini jadallashtirish uchun asos yaratish.

«Rivojlanayotgan davlatlar misli ko‘rilmagan salomatlik, ijtimoiy va iqtisodiy inqirozga duchor bo‘lib, o‘nlab yillik taraqqiyotni xavf ostiga qo‘yayotgan bir paytda, biz zararni cheklovchi tez va keng qamrovli chora-tadbirlarni aniqlash va mamlakatlar tiklanib ketishi uchun ularni amalga oshirish ustida faol ishlayapmiz. Biz sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlovchi, eng kambag‘al uy xo‘jaliklarini himoya qiluvchi, iqtisodiyot asoslarini qo‘llab-quvvatlovchi, tengsizliklarga qarshi kurashuvchi hamda kuchli va barqaror tiklanishni ta‘minlovchi dasturlar orqali mamlakatlarga pandemiyani yengishda yordam berishga e‘tibor qaratmoqdamiz.»

Jahon banki guruhi prezidenti Devid Malpass

O‘zbekistondagi milliy hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlashda Bank tomonidan ko‘mak ko‘rsatish yo‘nalishlari belgilandi. Jahon bankining ko‘magi quyidagi yo‘nalishlarda faoliyatni kuchaytirishga qaratilgan: (i) kasallikning tarqalishini, kasallanishni va o‘limni minimallashtirish uchun COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni aniqlash, izolyatsiya qilish va ularga yordam va davolanishni ko‘rsatish orqali COVID-19 epidemiyasining favqulodda muammolarini hal qilish; (ii) sog‘liqni saqlash tizimining qisqa muddatli va uzoq muddatli salohiyatini intensiv terapiya bo‘yicha kuchaytirish; (iii) jamoatchilikni COVID-19 epidemiyasi natijasida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha xabardorligini yaxshilash va o‘rgatish uchun samarali muloqot kampaniyalarini amalga oshirish.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Jahon banki vitse-prezidenti Anna B'erde boshchiligidagi delegatsiya bilan muzokaralari (2021 yil 30 sentyabr)

Loyihaning birinchi bosqichidagi faoliyati asosan tibbiy asbob-uskunalar, test tizimlari, reagentlar, shaxsiy himoya vositalarini favqulodda xarid qilish, shuningdek, aloqa, aholi bilan o'zaro hamkorlik va kadrlar tayyorlash sohasidagi faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Keyinchalik, ixtisoslashtirilgan laboratoriya va shifoxonalarda koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarni PCR diagnostikasi va davolash uchun test-tizimlarni xarid qilish uchun mamlakatimiz hukumati tomonidan yetarli mablag' ajratilishi munosabati bilan, loyiha mablag'larini 35 ta tumanlararo ixtisoslashtirilgan muassasalar (Covid yoki boshqa pandemik infeksiyalar favqulodda avj olgan taqdirda tezkor harakat qilish uchun zaxira quvvati sifatida mamlakatimizning chekka hududlarida yangi tashkil etilgan o'tkir yurak-qon tomir kasalliklari va politravmatik markazlar) salohiyatini mustahkamlash uchun ajratishga qaror qilindi. Ushbu tibbiyot muassasalarida jami 1810 o'rin (shundan 333 tasi reanimatsiya o'rinlari) tashkil etiladi. Tumanlararo markazlarning umumiy sonidan 24 ta muassasa o'z faoliyatini boshlagan, qolgan 11 ta markaz yaqin oylarda ish boshlaydi.



Loyiha doirasida umumiy qiymati 21,5 million dollarlik 1115 dona (19 xil) zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar xarid qilinib, loyiha ob'yektlariga yetkazib berildi, shundan 17,5 million dollari loyihaning asosiy fondlari hisobidan, 4,0 million dollari esa qo'shimcha ajratilgan grant hisobidan.

Ayni paytda umumiy qiymati 7,1 million AQSh dollariga teng yuqori texnologiyali uskunalar (rentgen tizimlari, ultratovush diagnostika asboblari, ko'p kesimli kompyuter tomografiyasi) yetkazib berilish jarayoni ketmoqda. Umumiy qiymati 11,5 million AQSH dollariga diagnostika, umumiy kasalxona jihozlari va jarrohlik asboblari xarid qilish bo'yicha tender jarayonlari o'tkazilmoqda.

